

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY –TURKISTON JADIDLARINING TAN OLINGAN RAHNAME

Qo'shnazarova Mehribon
(Urgench, Uzbekistan)

Otaboyev Akbar
(UrDU aspiranti)

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur".

(M. Behbudiy)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamesi,mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori,yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi,o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg,teatrchi,noshir,jurnalist Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlanadi.Maqolada ilmiy adabiyotlarga murojaat qilinadi.

Kalitso'zlar: Behbudiy, drama,jurnalist,publitsistika,jadid,matbuot,matbaa,yangi maktab,dramaturg,teatr,noshir,pedagogika,pedagogik asar.

Xalqimiz erishgan buyuk istiqlolning ne'matlaridan biri adabiyotimiz tarixini to'laqonli,teran o'rganish,ulug' sohibi qalam ijodkorlarimiz merosini har jihatdan munosib baholash imkoniyatining yaratilishi bo'ldi.Badiiy asarlarning asosiy xislati shundan iboratki,ularda muayyan millatning tili butun jozibasi bilan namoyon bo'ladi.Bu asarlar adabiy til me'yorlarini mustahkamlabgina qolmay,balki uning boyishi,yanada sayqallanishi,ta'sir doirasining kengayishiga ham sezilarli turtki beradi.Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi.Adib Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir.U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi,yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamesi,mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori,yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi,o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturgi,teatrchi,noshir,jurnalist edi.Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodiy merosi haqidagi ma'lumotlarni muxtasar qilib, quyidagi jadval ko'rinishida o'quvchilarga yetkazsak,dars mashg'uloti yanada qiziqarli bo'ladi.Chunki quyidagi jadval asosida o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan mavzuga mos muammoli vaziyatlar berilgan topshiriqli jadvallarni qiynalmasdan to'ldiradilar,guruhlararo raqobatlashadilar,bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar,tanqid qiladilar.Dars jarayonida muammoli topshiriqlar ustida ishlash o'quvchilar tafakkurining yanada o'sishiga zamin hozirlaydi, shaxsiy fikrlashga o'rgatadi.

№	Sana, vaqt va talqinlar	M.Behbudiyning hayoti, ijodiyoti bosqichlari
1	Tug'ilgan sana, oy, kun, joyi:	1875.19. I Samarqandning Siyob bo'lisidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida tug'ilgan.

2	Otasi, nasl – nasabi:	Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li, imom, ilmga ixlosmand. A.Yassaviy avlodiga mansub. Ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785 – 1880) Samarqandga kelib qolgan.
3	1862...	Ruslar Samarqandni bosib olganda Behbudxo'ja oilasi bilan Baxshitepa qishlog'iga ko'chib boradi. Asli shaharlik.
4	Boshlang'ich ta'limi haqida : 1881-1882	Tog'asi qozi Muhammad Siddiq yordamida xat – savod chiqaradi. Kichik tog'asi Mulla Odil unga arab tili va grammatikasini o'rgatadi. Tog'asi yordamida A.Jomiyning arab tili qoidalariga bag'ishlangan "Sharhi mullo", mantiq ilmiga oid "Muxtasar al- viqoya", "Xoshiya" asarlarini, hisob ilmini o'rganadi. Ilm olgan dargohlari : dastlab Samarqand, so'ng Buxoroda tahsil oladi.
5	1881:	Rus tilida "Rusiya musulmonligi "kitobini yozadi
6	1893... Mirzalik qilishi: Mirza so'z. izohi:	Otasi vafot etadi (1894). Tog'asi Muhammad Siddiq Chashmaob qishlog'ida qozilik qilardi. U jiyanini o'z yoniga olib qozilikka tayinlaydi. (18 yoshida mirzalik qildi). Keyin Kobud bo'lisining qozisi mulla Zubayr huzurida mirza bo'lib ishladi. (a+f)"amirzoda"s.ning qisqargan shakli.Tar.Yozuv – chizuv ishlarini olib boragan lavozimli kishi.
7	Mufti(y) nomini olishi: Mufti(y) so'z. izohi:	Ko'p o'tmay M.Behbudiy muftiylik lavozimini egallaydi. Shu vaqtdan boshlab uni Muftiy Mahmudxo'ja deb atay boshlaydilar. (a) – fatvo beruvchi.Musulmonlarda oliy lavozimli ruhoniylar:shariat qonunlarini talqin qiluvchi,shariat va huquq masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi,fatvo beruvchi lavozimli ulamo.
8	Behbudiyning o'ziga xos xususiyatlari:	Yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi Jurnalist Noshir Teatrchi Dramaturg Matbuot otasi Pedagog Jadidlar rahnamosi Mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori Yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi



9	O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi:	1.Publitsistika 2.Matbuot 3.Drama 4.Teatr madaniyati 5.Sahna san'ati asoschilaridan.
10	Behbudiy taxallusini olishi:	"Behbud" – (f-t) foyda, najot, baxt, tinch, osoyishta, yaxshilik tomonga o'zgarish degani.
11	Mukammal bilgan va erkin so'zlashgan tillari:	1)arab;2)fors;3)ingliz;4)nemis;5)fransuz.
12	Ochgan jadid maktablari:	1884 - yil Boqchasaroyda bir maktab ochadi va unga "Usuli jadid maktabi" deb nom beradi. "Musulmonlar avval bu maktabga uncha ishonqiramay qaradilar, - deb yozadi u bu haqida, - ammo 1 – ommaviy, ochiq imtihondan so'ng o'quvchilarning soni birdaniga 9 dan 30 bolaga ko'paydi, o'qitishda "usuli savtiya" ("tovush usuli") qo'llanilishi tufayli, mening rahbarligimda xo'ja (muallim) bolalarga olti oyda turkcha va arabcha o'qitishni, turkcha yozish va boshlang'ich diniy qoidalarini o'rgatishga muvaffaq bo'ldi" ("Guliston" j, 95. №2) 1884 – yil Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspiralinig "Tarjimon" gazetasiga obuna bo'lgan 100 kishining 200 tasi Turkistondan edi. Ismoilbek 1892 – yil Turkistondagi maktablarni isloh qilish, "usuli savtiya"ni joriy etish taklifi bilan general – gubernator N.O Rozenbaxga murojaat etdi. Javob ololmagach, 1893 – yilda Toshkentga kelib, Samarqand, Buxoroda bo'ladi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo'ladi. So'ng 1897 – yilda Turkistonga keladi. 1903- yil Samarqand atrofida Halvoyi (hozir ham saqlanib kelinmoqda) (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar Behbudiyning tashabbusi bilan ochildi. Shakuriy maktabini Behbudiy 1908 – yil Samarqandga o'z hovlisiga ko'chirib olib borgani ma'lum.
13	Pedagogik asarlari: (darsliklari)	1."Muntaxabi jug'ofiyga umumiy – ("Qisqacha umumiy jug'rofiyga") (1905) 2."Kitob ul – atfol ("Bolalar uchun kitob") (1908) 3."Muxtasari tarixi islom" 1909 ("Islomning qisqacha tarixi") 4."Amaliyoti islom" (1908) 5."Madhali jug'rofiya umroniy" ("Aholi jug'rofiyasi") (1905) 6."Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi" (1905) 7.Boshlang'ich sinflar uchun "Yangi hisob" 8."Risolai asbobi savod" (1904)

14	"Marquq" so'zining izohi:	"Qabilasining va yetti otasining otini bilmaydurgonlarning "qul" – "marquq" derlar.(Ch. Aytmatov "Manqurt deb yangi nom bilan atadi) 1918-yil
15	Chet elda o'qigan o'zbeklar:	M. Shermuhamedov va bir qator o'zbeklar Markaziy Rusiyaga – Ufadagi "Oliya" madrasasiga yo'l oldilar. "Oliya" da 10 dan ortiq o'zbek o'qiydi. 10 – yillarda Varshavada, Olmoniyada, Moskva, Peterburgda o'zbeklar o'qigani ma'lum.
16	Safarlari: 1899-1900 1914 Safarlari natijasida yaratilgan asar:	Buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqdi. Qozon (1906), Ufa (1906), Nijniy Novgorod (1906). Arabiston, Turkiya, Misr, Moskva (1903 – 1904), Peterburg (1903-1904). 1914. 29 V da Behbudiy 2 – marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqdi. Marshrut: Kavkaz → Qrim, Istanbul → Yunoniston → Bayrut → Misr Qohirasi → va yana orqaga → Istanbulga qaytib, temir yo'l bilan Bulg'oriston, Avstriya → Berlin orqali → Rusiya → Turkiston. Muddat: 2 oy 29. V da yo'lga tushadi. Poyezdga o'tirib Bayramali orqali Ashxobodga o'tadi. Krasnovodskdan paroxod bilan Bokuga boradi. 2 VI da Mineralniye Vodi → Kislovodsk → Pyatigorsk, Jeleznovodsk → Rostov → Odessani kezib, 8 VI da Istanbulga kirib keladi. Undan Adirnaga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21 VI da suv yo'li bilan Quddusga yo'l oladi, Bayrut, Yofa, Xalil ar – Rahmon, port Said, Shom shaharlarini tomosha qiladi. Sayohat VII ning boshlarida ham davom etadi. Sayohat xotiralarini Behbudiy "Oyna"ning 1914 – yil sonlarida "Sayohat xotiralar" nomi bilan berib boradi. Olmon olimasi professor Ingeborg Baldauf "M. Behbudiy Falastinda" (1993) maqolasini e'lon qildi. Muallif unda Behbudiy kuzatishlarining o'ziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini o'rtagan eng katta dard – erk va ma'rifat ekanligini aytgan. Safarlari natijasida "Xotiralar" ma'rifiy asari dunyoga keld
17	Matbuot sohasidagi xizmatlari: Ishlagan gazetalari: 13 ta:	1."Samarqand" gazetasini nashr etdi: (1913. IV)turkiy, forsiy tillarda chiqdi. 45 sonidan keyin iqtisod tufayli chiqish to'xtadi. 2.1913-14 "Xurshid". 3."Ulug' Turkiston" gazetasi 4."Vaqt" 5."Turkiston viloyatining gazetasi" 6."Taraqqiyot" 7."Tujjor" 8."Shuhrat" 9."Osiyo" 10."Turon" 11."Hurriyat" 12."Mehnatkashlar tovushi" 13."Najot" Ziyo Said Behbudiy chiqargan "Oyna" jurnali haqida: "Boshda haftada bir marta, 2 – yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, 20 oy chamasi davom qildi . . . Bu suratli haftalik majalla, asosan, o'zbek tilida bo'lib,

		unda ixcham forsiy she'r, maqolalar, ruscha e'lon ham berib borilardi. Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi. . . Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevib o'qildi". Jurnal redaksiyasi muharrirning yangi shahardagi uyida (Reshetnikov, 3; hozir Mirsaid Baraka, 1, aloqa xodimlari kasaba uyushmasining viloyat tashkiloti binosi) joylashgan..
18	Ochgan nashriyoti, kutubxonasi:	"Nashriyoti Behbudiya", "Behbudiya kutubxonasi" "Nashriyoti Behbudi" (o'z xususiy nashriyoti) Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarini 1913 – yil ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi.
19	Ishlagan jurnallari: 1914 - 1915	"Inqilob"; "Oyna" jurnalini nashr etadi. (1913. 20 VIII) Kavkaz, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Tataristonda tarqal)
20	Maqolalari: 1909-1914-yillarda yozilgan.	1-jahon urushi arafalaridagi maqolalar soni 200 ga yaqin edi: 1)"Turkiston idorasi";2)"Turkistonda maktab jarida";3)"Buxoroda usuli jadid" 4)"Yoshlarga murojaat";5)"Ehtiyoji millat";6)"2 emas, 4 til kerak";7)"Buxoro xonligiga sayohat" (1912);8)"Felyeton";9)"Bayoni haqiqat";10)"Xayrul – umuru avsatuho" (Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir) – bu maqola Behbudiyni qoralashga nishon bo'lib keldi;11)"Duma va Turkiston musulmonlari";12)"Tahsil oyi"; 13)"Samarqand usuli jadida maktab xususida";14)"Majlis imtihon" 15)"Tarix va jug'rofiya" ;16) «Samarqand kitobxona va matbaaxona » Behbudiyni qoralashga nishon bo'lgan maqolasi: "Xayrul umuru avsatuho" ("Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir" 1906. 10. X. "Xurshid" gazetasi 6 – son bu maqolada Behbudi Lenin partiyasini rad qilgan edi. Muallif maqolada Rusiyadagi quyidagi siyosiy partiyalarni ko'rsatadi. 1)Mustabid firqasi (hukumat partiyasi) 2)Mashrutai avomiya (kadetlar partiyasi) 3)Ishtirokiyuni ommaviyun (sotsial – demakratlar partiyasi) 4)Rusiya musulmonlari ittifoqi Behbudi "Ishtirokiyuni ommaviyun" "shariatga zid" tomonlariga diqqatni qaratadi va uni "xayoliy", hatto, "zararli" ("bu toifaga qo'shilmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlidir") hisoblanadi. Kadetlar partiyasini qo'llaydi. <pre> graph TD A(Jamiyat 3 xil bo'linadi) --- B(ilm) A --- C(insof, din, diyonat) A --- D(hunar) </pre>

		Behbudiy odamlarni ahvoliga qarab 3 ga bo'ladi: 1)Vahshoniyat martabasi – ilm – ma'rifat, din – diyonat, insof – siyosat hech – hech bir insong'a yoqimlik holati, harakati, fe'li bo'lmaydur. Bu nav odamlardan Afriqo cho'llarig'a, Ameriqo tog'larig'a, Avstraliya jaziralarig'a bordur. Yemoqlari o't – giyoh, murdorlar Saydu shikor, yana topilsa, odam yemoq ila mashg'uldurlar. 2)Badaviylar – vahshoniyatdan taraqqiy yoinki madaniyatdan tanazzul qilib, bir holg'a kelg'on vahshiy ila madaniy arosida vositadurki, "ko'chmanchi", "badaviy", "sahroyi", "badiyanishin" atalurlar. Bularning umri mol boqmoq, yemoq, yotmoq ila o'tib, jamiyatga yordami tegmaydi. Chunki ularning makonlari cho'llarda, tog'lar orasida chodirlarda, aksar ko'chib yuradilar. 3)"Madaniy" yoki "shahariy" – ilm, hunar, fazllik xalq. Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullarni 3 ga bo'ladi: 1)Idorai mustaqalla (idorai mutlaqa – monarxiya") 2)Idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat) 3)Idorai jumhuriyat (Respublika) Ibn Sino o'zini "kofir" deyuvchilarga qarata shunday yozadi: "Kufri chu man gazof va oson nabuvad, Mahkamtar az imoni man imon nabuvad. Dar dahr chu man yake on ham kofir, Pas, dar hama dahr yak musulmon nabuvad. (Meni kofirlikda ayblash oson emas.Chunki dunyoda menining imonimdan mahkamroq imon yo'q va u ham kofir bo'ladigan bo'lsa, bu dunyoda musulmonning o'zi yo'q ekan)"
21	Dramasi: 1911	« Padarkush » Tavallo: "Kimiki sahnada ko'rsang, oni jasorati bu" "Padarkush" bosilgandan keyin ham, uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqidagi xatlarga javoban: "O'ynaturgan odam yo'q. Azbaski, Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnasiga chiqib, "masxarabozlik" qilsa", - deb yozadi. "Padarkush" – yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar. Jaholat, nodonlik haqida Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa – chi?! "Padarkush" 1 – marta Samarqandda 1914 – yil 15.I da sahnaga qo'yildi.

		Ro'llarda: Boy - Abdusalom Abdurahim o'g'li, Domla – Mardonqul Shomahmud o'g'li, ziyoli – Mirzo No'mon Mulla Fozil o'g'li. Toshkentda 1914. 24. II da qo'yildi. Avloniyning "Turon" truppasi o'z faoliyatini shu asar bilan boshlagan. Spektakldan oldin Munavvar Qori teatrning jamoadagi o'rni haqida nutq so'zlaydi. Boy ro'lini Avloniy ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun" deb yozadi. "Turon" truppasi 1914 – 16 – yillarda bu spektakl bilan butun Farg'onani aylanib chiqadi. 1916 – yilda Toshkentga kelib Kolizeyda (hozirgi Savdo birjasi binosi) Turonning qator spektakllarini ko'rgan A.N. Samoylovich yozadi: "Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi. . . Yangi adabiyotning markazi Samarqand . . . Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti M.Behbudiylidir". "Padarkush" ning tatar, ozorbayjon teatrchiligiga ta'siri: 1)Zaki Boyazidskiy; 2)Aliasqar Asqarov; 3)Sidqiy Ruhillo; 4)Ilyosbek Oshqozorskiy kabi shu yillarda ko'plab qardosh rejissorlar faoliyat ko'rsatgan. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydurlar. B.A.Pestovskiy 1922 – yil "Inqilob" jurnalida "O'zbek teatri tarixi" maqolasida shunday yozadi: "O'zbek teatrining asosini qo'yib beruvchi samarqandlik M.Behbudiylidir". "Padarkush"ni yozishda Fonvizinning "Fahmsiz" ("Nedorosl") idan ta'sirlanganinini qayd etadi.
22	1922 :	« Zarafshon » gazetasi unga nashri maorif sohasida « Vatanimizning 1- qahramoni » deb baho beradi.
23	Jadidchilik harakatlari :	1)Turkistondagi jadidchilik harakatining rahbari ; 2)jadidlar dasturining asosini tuzdi va matbuotda e'lon qildi ; 3)o'z uyida maktab ochib, bepul o'qitdi ; 4)ilm berishning jahon miqyosidagi tajribalaridan foydalandi; 5)ovro'pacha ta'lim – tarbiyani Turkiston maktablariga joriy qildi; 6)yangi darsliklar yaratdi; 7)matbuotni rivojlantirdi; 8)yangi pedagogika, publitsistika, dramaturgiya, teatr, sahna san'atiga asos qo'yganlardan ; 9)yangi uslubdagi maktab targ'ibotchisi.
24	Davlat arbobi: 1917. XI	1) IV qurultoyida Turkiston muxtoriyati rahbariyatiga saylandi ;

	1917.IV 1918.	2)Umumturkiston musulmonlar qurultoyida Turkistonni o'zini o'zi boshqaruvchi mustaqil davlatga aylantirish g'oyasini o'rta tashladi; 3) « Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi »ga maorif xalq komissari qilib tayinlandi.
25	Tilimiz rivojiga qo'shgan hissi: 1918	Turkistonning davlat tili loyihasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi. “Oyna” dagi maqolalardan biri shunday nomlangan: “Himmat va saboti bo'lmagan millatning haqqi hayoti yo'qdur. “Tushundigim zamon ko'nglum yonar, yig'lamoq istarman, ko'zyoshlarim kelmaydur”, - deb boshlanar edi maqola. “Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, bir oz zamonada til va milliyatimizni yo'qoturmiz. Milliyatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z – o'zi ila, albatta, yo'qolur. Bas, bizg'a, tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur”, - deb xulosa qiladi Behbudiy.
26	Aloqada bo'lgan jadidlar, adiblar:	1)I.Gaspirali; 9)Ayniy; 2)M.Qori; 10)Qurbi; 3)Fitrat; 11)Akobir Mahdum. 4)Hoji Muin; 5)Shukrullo; 6)Ajziy; 7)Kamiy; 8)Mirzo To'lagan;
27	N.R. Kuropatkin:	“ Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik”, - degan edi.
28	Ayblari:	1)musulmonlar manfaatiga xiyonat qildi; 2)o'risparast.
29	Behbudiyni qoralovchilar:	1)Miller – rus elchixonasining boshlig'i. 2)Kuropatkin – Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari
30	Behbudiyning qotili kim?	N.Karimov "1950 - yil 66 – son "Milliy Turkiston" jurnalida bosilgan bir fakti keltiradi:"Ul Qarshi shahrinda o'z oldiga qo'ygan vazifalarini o'rinlov harakatida ekan, qizil Rusiyaning Buxoro elchixona xizmatchisi Utkin vositasi-la amir tomonidan tutildi. Behbudiy amirning Qarshi shahrindagi voliyi Nuriddin Og'aliq tomonidan 25. III 1919 – yil vahshiyona o'ldirildi.
31	Vafot etgan sanasi, joyi: Behbudiy vasiyatnomasi:	Buxoro amiri Said olimxon farmoni bilan Shahrisabzdagi kishilar tomonidan hibsga olinadi va “sho'ro ayg'oqchisi”, “jadid”, “sho'roga sotilgan” degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi. 1919-yil bahor o'limidan oldin vasiyatnoma yozib, Ahmad ismli kishiga topshiradi.

32	Behbudiylshunos olimlar:	1.S.Ayniy; 2.Hoji Muin; 3.Laziz Azizzoda; 4.Solih Qosimov; 5.Ahmad Aliyev; 6.Naim Karimov;	7.Sirojiddin Ahmedov; 8.Sherali Turdiyev; 9.Halim Sayyid; 10.Normurod Avazov; 11.Zebo Ahrorova.
33	20 – yillarda o'rgangan olimlar:	1)Hoji Muin (1922 – 23 – yillarda ibn Shukrullo o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (22), "Zarafshon" (23) gazetalarda chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega); 2)S.Ayniy; 3)Laziz Azizzoda .	
34	70 – yillardan o'rgangan olimlar:	1)Solih Qosimov; 2)Ahmad Aliyev; 3)Naim Karimov; 4)Sirojiddin Ahmedov; 5)Sherali Turdiyevlar . . .	
35	Bugungi yosh tadqiqotchilar:	1)Halim Sayid ("Millatlar qanday taraqqiy etarlar?") 2.Normurod Avazov 3)Zebo Ahrorova ishlarining barchasida mana shu Hoji Muin ma'lumotlari asos qilib olinadi. 4)N.Ochilov ("Ehtiyoji millat") Izoh: Aslida ham H.Muin (1883 – 1942) Behbudiyni yaqindan bilgan, uning e'tiboriga sazovor bo'lgan hamkasabasi, shogirdi edi. 1914 – yilda Behbudiyl haj safariga ketar ekan, "Oyna" jurnalining muvaqqat muharriri qilib Hoji Muinni qoldirganligi ma'lum.	
36	M.Behbudiyl haqida marsiya yaratgan adiblar:	1)Fitrat (3 ta she'r yozgan); 2)Cho'lpon; 3)Ayniy: Saning tarixiy davroning, saning osori urfoning, Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu? Vatan avlodi yod etdi, sani hurmatda shod etdi, Va lekin intiqomingni ololormu, ololmasmu? Cho'lponning marsiyasi: Qayg'uringiz, kishanlarni yasovchi ustalar, Boshqalarni tubanlar deb atovchi xo'jalar! Sizlar uchun yoz boshining qoridek Erur kunlar keladur! Sizlar uchun alvastining zoridek Yig'lar kunlar keladur!	

37	M.Behbudiy haqida yaratilgan pyesa:	Xojimurodning "Maorif qurbonlari" pyesasi.
38	Behbudiy haqida allomalar fikri:	"Siyosiy - ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtidagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q deb o'ylayman". (F.Xo'jayev) "M.Behbudiy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'rinni olurga loyiq zotdur". (Hoji Muin ibn Shukrullo)
39		Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritildi. "O'zbek teatrining asosini qo'yib beruvchi samarqandlik M.Behbudiydir". Adib nomida Toshkentda maorif klubi, Samarqandda kutubxona, dramtruppa, Turkistonning hamma shaharlarida uning nomiga ochilgan maktablar, Buxoroda markaziy bosmaxona borligini ta'kidlaydi. "O'zbek milliy adabiyotining negiz toshini Behbudiy bilan Fitrat qo'yib berdi"
40	Behbudiy avlodlari:	Farzandlari: 3 o'g'il va 1 qiz "Sayohat xotiralari"da tilga olingan Mas'udxo'ja gimnaziya o'qigan, rus tili mutaxassisi bo'lgan. Tarjimonlik bilan shug'ullangan. 1953 - yil vafot etgan. Uning farzandlari: 1)Shavakat (1919 - 1990) 2)Midhat (1922 - yil tug'ilgan. Dushanbeda yashaydi) 3)Nadimxon (1929 - 1995, SamDU professori edi) 4)Nazirxon (tijoratchi) (Midhat Behbudiyning Toshkentda 1945 - yil tug'ilgan o'g'li Sarvat Behbudiy - mashhur sirk artisti Qolgan 2 - o'g'lining biri Maqsudxon (1910 - 1931) geografiya ilmiga iqtidorli va qobiliyatli bo'lib, erta vafot etgan. 1914 - 16 - yillarda tug'ilgan Matlubxon urushda bedarak ketgan. Qizi Parvin (Surayyo) 82 yoshda 1984 - yil vafot etgan).

Mahmudxo'ja Behbudiy e'tiroflari

1	Vatan	1.Vatan va ahli diyorning qadri musofirotda ma'lum bo'lur. Haqiqatan, Vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak. Sotmasg'a va o'lg'uncha ayrilmasg'a kerakdur. 2.Moziy – haqiqatning tarozisidur 3.Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmaydurg'anlarni "qul" - "marquq" derlar. 4.Vatanimizga va o'z dinimizga xizmat etaylik . Musulmon bo'lib taraqqiylashayluk . 5.Bizlar o'limdan qo'rqmaymiz . Balki haq yo'lida o'lmakni o'zimiz uchun bir sharaf deb bilamiz . 6. Turkiston eski dunyoning Ameriqasidur. Paxta ma'dan ,g'alla , xulosa har nimarsa bor, Turkiston oltindur.
2	Uyg'on millat	1."Taraqqiy etgan millatlar onalari o'qutar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur". 2."Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o'z milattining oyandasi uchun yo'l ko'rsatur . Har millatning ulamosi, ahli qalami millat uchun so'ylar, yozar va xavoyiji milliyya va zamoniyani o'z millati mansubasiga bildirar ". 3."Bugun islohi maktab madrasa , ya'ni islohi millatga qo'shish qilinmasa , rub'i asr so'ngra diyonat barbod bo'lur va anino javobi mas'uliyati bugungilarga qolur ". 4."Dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur". 5. "Biz musulmonmiz. Musulmonlikg'a ilm lozim. amal lozim. O'qumoq kerak".
3	Istiqlol olinur berilmas	1. Haq olinur, berilmas. 2. Bilmoq kerakki, haq olinur berilmaydur. Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi . Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki , hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa asli fikr va niyatimiz yo'q. Zotan, dinimiz-da shunga mone'dur.

4	Halokat ham , saodat ham tarbiyadandur.	1.Koloniya (mustamlakot) qoidasi ila bizni idora etarlarki, bunga o'z ixtiloflarimiz sabab bo'lur. Mana shularning chorasi shulkim, yoshlar tezlik va bema'nilikni qo'yib, fanniy ila ish qilsunlar. ...Kattalarimiz va mullalarimizga ham arz qilurmizki, alarning xizmatidin millatni mahrum etturmasunlar. Yoshlar istaydilarki, millatga va xalq, ommaga xizmat etsalar. Alarning aybi shulkim, ichlari tor. Oldimizda ishlar ko'p. Boshqa xalqlar har daqiqa taraqqiy etmoqdadurlar. Takror arz qilurmizki , yosh va kattalar bir bo'lib ishlamoq kerakdur. 2. Hozir yangi va boshqa- boshqa zamondur. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'lidan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar , hatto dini ham zaif bo'lur . Buning uchun biz musulmonlarni o'qutmoqg'a sa'y qilmog'imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qimoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandur. 3.Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xo'rliklar – hammasi ilmsizlik va betarbiyalik mevasi va natijasidir. Dunyoda taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan. 4.Bolalar uchun tarbiyatxona (pansion) ochmoq kerak va bu tarbiyatxonalar zamonga va ham milliy va diniy ruhda bo'lishi kerakdur. Bu tarbiyatxonalarini ochmoq uchun nashri maorif yoinki jamiyati xayriya va yoyinki tarbiyati atfol jamiyati va yo o'zga ism ila, xulosa, jamiyatlar kerakdur. Baski, bul jamiyatlar xalqdan oqcha jamlab, millat bolalarini o'qitish va millatning oyandasi uchun kerak bo'la turg'on qozi, ya'ni sudya , zakunchi , ya'ni huquqshunos, injener , ya'ni muhandis, muallim, ya'ni zamona maktabdori, millatning homiysi va xodimi, ya'ni Davlat Dumasiga deputat, milliy sanoatxonalarimizni isloh va ihyo etuvchi; ya'ni texnik, tijoratxona va boshqalarda bizg'a yordam beruvchi, ya'ni, tijorat ilmini o'qug'an kommersant, shahar dumalarig'a va minba'd Turkistonda ochilaturg'on zemstva idoralarinda bizni tarafdin kirib saylanib, biz uchun, Vatan uchun, din, mubayyini islom uchun zuafo uchun, fuqaro uchun ishlayturg'on odamlar yetishtirmoq kerakdur.
5	Najot- ma'rifatdandur	1.Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! 2.Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz!...

		3. Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysi zamoncha isloh etub ko'payturmaguncha, taraqqiy yo'lga kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hozirdan mahrum qolub, sanoe' va maorifi salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas. Muborizai hayot maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarning asiri bo'lub, bora – bora milliyat va diniyatini ham qo'ldan berur. Ana shu yo'llar ila oxiri mahv va nobud bo'lub ketar. 4. Siz muhtamlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatg'a xizmat etsa (din va millatg'a xizmat ilm va aqcha ila bo'lur) shu ilmi zamoniy tahsil qilmog'i uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilg'onidek, sizda, hatto lozim bo'lganida mulkingizni sotsangiz- da, o'g'lingizni zamoncha o'qimog'ig'a sa'yi qilingiz. To'yg'a isrof qilaturg'on aqchalarni o'qimoq yo'lig'a sarf qilingiz.
6	Til millatning oynasidir.	Biz turkistoniylarga turkiy, arabiy, forsiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy ya'ni, o'zbekiniy sababi shuki, Turkiston xalqining aksari o'zbekcha so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va adabiy tilidir. Bu kung'acha Turkistoning har tarafidagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblara arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarni tahriru tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni, dars kitobi arabiy, muallim turkiy, tahrir-u tarjimani forsiyligi xiyla ajibdur. Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydur... ... Fors shoir- u adibbosi asarlari qiyomatg'acha lazzati ketmaydurgan xazinai ma'naviyatdurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoliklar milliardlar sarf etarlar. Bizga saodatdurki, turkiy va forsiyni tahlilsiz bilurmiz. Har turkiy bilmog'i lozimdur. Farang va rus donishmandlarining foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmoq ila mumkin bo'lur... ... Bizg'a lozimki, o'z naf'imiz uchun ruscha bilaylik, hukumat maktablarida o'quylik, davlat mansablarig'a kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizga xizmat etaylik. Musulmon bo'lub turib taraqqiylashaylik. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat ruscha

	ilmsiz bo'lmaydur. Masalan, bu kungi (podshohlik дума)g'a o'z din va millatimiz naf'ig'a so'zlamog bizlar uchun mumkin bo'lur. Ammo anda borub so'ylaguvchi kishi bizda yo'q. Anda borub naf'i vatan va millatg'a so'ylamoq uchun Rusiya maktablarida bir o'n sana o'qimoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur. Xulosa, bugun bizlarg'a to'rt tilda tahrir – u taqrir etguvchilar kerak, ya'ni, arabiy rusiy, turkiy va forsiy. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. Arabiyni bilmasak – dunyo qo'ldan ketar, turkiy va forsiyni keraklig'ig'a so'z yo'qdur. Yana bir til va xat borki, butun olam bir – biri ila aning ila so'ylaydur. Ul Fransiya tili va xatini o'rganmoq shariatg'a durustdur.
--	---